

## BADIY MATNDA KIRISH VA KIRITMALARNING QO'LLANISHI

(Tohir Malikning "Shaytanat" asari misolida)

Xudayberganova Dildora Kulmamatovna,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasi katta  
o'qituvchisi,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

### APPLICATION OF INPUTS AND INPUTS IN ARTISTIC TEXT

(On the example of "Shaytanat" by Tahir Malik)

Khudayberganova Dildora Kulmamatovna,

Senior Lecturer, Department of computer linguistics and Applied

Linguistics, National University of Uzbekistan named after Mirzo

Ulugbek,

Doctor of philosophy in philology (PhD)

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВВОДНЫХ И ВСТАВНЫХ КОНСТРУКЦИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

(На примере произведения Тахира Малика «Шайтанат»)

Худайберганова Дилдора Кулмаматовна,

старший преподаватель кафедры компьютерной

лингвистики и прикладного языкознания Национального

университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека,

доктор философии (PhD) по филологическим наукам

[https://orcid.org/0000-0003-](https://orcid.org/0000-0003-1358-6218)

1358-6218

xudoyberganova.dildora0707

@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqola T.Malikning "Shaytanat" asarida qo'llangan kirish va kiritma kengaytiruvchilarining stilistik va semantik jihatdan o'rni hamda ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Kirish kengaytiruvchilar gapda muallifning asosiy fikrga munosabatini bildiruvchi va uni ta'kidlovchi vosita sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bu kengaytiruvchilar matnni yanada ifodali va tushunarli qilishda muhim rol o'ynaydi, o'quvchiga muallif nuqtayi nazarini aniqroq anglashga yordam beradi. Kiritma kengaytiruvchilar esa fikrga qo'shimcha ma'lumot qo'shib, uning mazmunini boyitish bilan birga, o'quvchining asarga nisbatan yanada chuqurroq tushunchaga ega bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu maqolada mazkur kengaytiruvchilarining badiiy asardagi funksional imkoniyatlari kengroq ko'lamda o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** kirish so'zlar, kiritma gaplar, kirish kengaytiruvchilar, kiritma gaplarning ma'nosi, badiiy matnda kirish va kiritmalarning qo'llanilishi, fikrni izohlash va tushuntirish, kirish va kiritma qurilmalarining stilistik vazifasi.

**Abstract:** This article T.Malik's work "Shaytanat" is devoted to analyzing the role and importance of input and input extenders stylistically and semantically. Introductory Extenders Act in a sentence as a means by which the author reacts to the main thought and emphasizes it. These extenders play an important role in making the text more expressive and understandable, helping the reader to more accurately understand the point of view of the author. The inclusion extenders add more information to the thought, while enriching its content, ensuring that the reader has a deeper understanding of the work. In this article, the functional capabilities of these expanders in the work of art will be studied in a wider scope.

**Keywords:** input words, input statements, input extenders, meaning of input statements, application of inputs and inputs in artistic text, interpretation and explanation of thought, stylistic function of input and input devices.

**Аннотация:** Данная статья посвящена анализу стилистического и семантического значения вводных и вставных конструкций, используемых в произведении Т. Малика «Шайтанат». Вводные конструкции в предложении служат средством выражения отношения автора к основной мысли и её акцентирования. Эти конструкции играют важную роль в том, чтобы сделать текст более выразительным и понятным, помогая читателю лучше понять точку зрения автора. Вставные конструкции, добавляя дополнительную информацию к мысли, обогащают её содержание, а также способствуют тому, чтобы читатель имел более глубокое понимание произведения. В данной статье рассматриваются функциональные возможности этих конструкций в художественном произведении.

**Ключевые слова:** вводные слова, вставные предложения, вводные конструкции, значение вставных предложений, использование вводных и вставных конструкций в художественном тексте, объяснение и толкование мысли, стилистическая функция вводных и вставных конструкций.

**KIRISH.** Tohir Malikning “Shaytanat” asari o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘rin egallagan muhim badiiy asarlardan biridir. Asar nafaqat o‘zining murakkab sujeti va qahramonlar xarakterlari orqali o‘quvchilarni o‘ziga jalb qiladi, balki unda foydalanilgan lingvistik vositalar, xususan, kirish va kiritmalar mahorat bilan qo‘llanilishi orqali ham ajralib turadi. Ushbu vositalar muallif uslubini yanada boyitib, asarning badiiy ifoda kuchini oshiradi.

Kirishlar gapning mantiqiy va emotsiyonal qirralarini ochib berish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, muallifning fikrga bo‘lgan munosabatini aniq ifodalashga xizmat qiladi. Ular fikrga ishonch, inkor, taxmin, tasdiq, hayrat kabi subyektiv baho va munosabatlarni ko‘rsatib beradi. Shuningdek, kirishlar yordamida fikrning tartibi, dalillanishi, izchilligi va xulosasi muallifning o‘z nuqtayi nazari bilan birgalikda aniqroq ifodalananadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLIGIYA.** Tadqiqot jarayonida o‘zbek tilida kirish va kiritma gaplarning o‘rni va ahamiyatini o‘rganish uchun qator ilmiy manbalarga tayanildi. Kirish so‘z va kiritmalar bo‘yicha R.Sayfullayeva, Sh.Rahmatullayev kabi olimlarning asarlari asosiy metodologik manba sifatida tanlandi. Ayniqsa, “Zamonaviy o‘zbek tili: Sintaksis” va “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi” kabi asarlar kirish gaplar va ularning gapshaklda qanday ahamiyat kasb etishi haqida aniq nazariy asoslar beradi.

T.Malikning “Shaytanat” asari tahlil qilingan bo‘lib, unda kirish va kiritma gaplarning badiiy matndagi roli chuqur tadqiq qilindi. Asarda keltirilgan kirishlar va kiritmalar turli xil mazmun turlari, jumladan, afsus, achinish, fikrni xulosalash, guman, tasdiq kabi ahvol va hissiy holatlarni ifodalashda qo‘llanilgan. Bu jihatlar badiiy asar tilini boyitishda muhim ahamiyat kasb etgani kuzatildi. Yuqorida manbalardan foydalanish orqali maqolada kirish so‘z va kiritma gaplar orqali so‘zlovchining fikrga munosabatini ifodalash metodologiyasi o‘rganildi. Tilshunoslarning ilmiy qarashlaridagi nazariy tahlillari esa ilmiy-grammatik asosni kuchaytirdi, “Shaytanat” asari esa nazariy bilimlar amaliyotda qanday aks etishini namoyon qildi. Umuman olganda, bu maqola kirish va kiritmalarning badiiy matndagi o‘rni haqida chuqur ilmiy va badiiy tahlillarni birlashtirgan holda yozildi.

Kirish kengaytiruvchi so‘z, birikma va gap ko‘rinishida bo‘lishi mumkin:

1. Farg‘onada, balki, balqarsan. (A.Orip.)
2. Tabibning ta’biricha, shohning sog‘ayishi uchun uch narsa zarur ekan. (Ert.)
3. Men sizga aytsam, bir kunda uch mahal shaharga qatnashning o‘zi bo‘lmaydi. (S.Nur.)

Shu sababli kirish kengaytiruvchi kirish so‘z, kirish birikma, kirish gap kabi turga bo‘lib o‘rganiladi. Aslida barcha kirish kengaytiruvchisi nominativ birlik[2].

**Metod.** Ushbu mavzuni yoritish davomida tavsiflash, qiyoslash, analiz, sintez, tasniflash metodlaridan keng foydalanildi.

**MUHOKAMA.** Kirish va kiritma bo‘laklar asarda muallifning fikriga munosabatini bildiruvchi vositalar hisoblanadi. Bu bo‘laklar turli usullarda, masalan, afsuslanish, fikrni xulosalash, tasdiqlash, gumon, dalillash va boshqa holatlar orqali ifodalanadi. Kirish bo‘laklari so‘zlovchining fikrga bo‘lgan aqliy yoki hissiy munosabatini bildiradi va gapshakl bilan bog‘lanadi[3].

Tohir Malikning “Shaytanat” asarida kirish va kirtmalarining keng ko‘lamda ishlatilishi kuzatiladi. Ushbu kiritma va kirishlar asarda ma’lum axborotlarni ifodalashda yordam beradi, tinglovchi yoki o‘quvchining asosiy fikrga diqqatini qaratishga imkon yaratadi. Muallif kirish so‘zlar orqali o‘z hissiyotlarini ifoda etadi, kirtmalar esa fikrni tushuntirishda va izohlashda foydalaniladi. Masalan, “Afsuski”, “Demak”, “Masalan” kabi so‘zlar kirish bo‘lib xizmat qiladi va ular o‘ziga aloqador fikrdan maxsus to‘xtam bilan ajratiladi. Asarda kirish va kirtmalar orasida modallik holatlari (ishonch, gumon, tasdiq va inkor) ham yaqqol aks etadi.

“Shaytanat” asarida kirish so‘z va kirtmalarini quyidagi ma’no turlari bo‘yicha uchratamiz:

**Afsus va achinish:** – Attang, bu yerlarning xo‘rozlari oftob ko‘rmagani uchun totli emas. O‘zbekistonni boshqacha edi[1:354].

**Fikrni xulosalash yoki aytlayotgan fikrning oldingi flkr bilan bog‘liqligi:** Demak, kilosidan besh yuzdan qolarkan-da[1:57]?

Xullas, shu gapim ta’sir qildi[2:157].

**Fikrni dalillash:** Masalan,... Boshqa bir-ikki qabristonni surishtirgan bo‘lamiz-u, ular aytganga yaqinlashmaymiz[3:348].

Hech kimning, jumladan, Asadbekning soyadek ilashib yuradigan qo‘riqchilar ham yo‘q[4:292].

**Eslatish:** Ha, aytmoqchi, to‘y hali ham aniq bo‘lmabdimi[3:262]?

Darvoqe, Manzura erining hayotiga, ishlariga aralashmoq huquqidan mahrum ekanini unutibdi[4:44].

**Gumon:** Jamshid “To‘xta, birov maynavozchilik qilyapti, shekilli”, deb go‘shakni ko‘tardi[1:379].

Ehtimol,... Yana kim biladi... Risolat kampirning aytib yig‘lashiga agar tog‘ qoyalari tushunishsa, alamdan balki tars-tars yorilib ketarmi edilar[3:237].

**Tasdiq:** Darhaqiqat, ularning oldi-berdisiga kitobning nima aloqasi bor[5:372]?

**Tasdiq va mavjudlik:** U qizni yaxshi ko‘raman, shuni deb o‘lib ketsam, mayli, roziman...[2:157] Xo‘p, men bunga ishondim, deylik. Xo‘p, senlar meni ahmoq qildilaring ham deylik[3:251].

**Inkor yoki mavjud emaslik:** Yo‘q, shu imkoniyatdan foydalanmasam, chindan ham jinni bo‘laman[1:20].

**Ishonch:** Ha, albatta, sizning vakilingiz, – deb xatosini tuzatdi Chuvrindi[3:249].

**Quvonch:** Xayriyatki, tunning muqobilida kun bo‘lgani kabi, yomonning payini qirquvchi yaxshi ham bor[4:112].

**Ajablanish:** – Vo ajabo, o‘zi ham menga shu gaplarni aytди. Ammo unga uchrashganim hamon moshinam topildi-da[1:157]?

**Taajub:** Tavba! Ishtonni yo‘qning ishtonni yirtiqla kulgani shumi? Chiqib ketmasam bo‘lmaydi bu yerdan[1:87].

**Fikrning chinligiga gumon ham, ishonch ham bildiradigan:** Har qalay, eski qadrdonlardan[3:262].

**Ta’kidlash, tinglovchining diqqatini bayon qilinayotgan fikrga tortish:** Uyni qaytadan bo‘yoqdan chiqarishga Anvarda qunt ham, toqat ham, muhimi — mablag‘ ham yo‘q edi[3:241].

U yo‘qolmadidi, atrofimizda aylanib yuribdi, axir[5:126]!

**Fikrni bayon qilish usuliga munosabat:** Qisqasi, Hosil degan bilan aloqa qilishimni istayapti u[2:336].

— Gapning indallosi, bultur uylar buziladi, deb o‘lchab-netib ketishuvdi[1:251].

Nafsilaqrini aytganda, suhbatni keskin uzishiga nima sabab bo‘lganini Anvarning o‘zi ham aniq bilmaydi[1:82].

**Fikrning bog‘lanishini, matn tarkibiy qismlari orasida munosabat, ichki aloqa kabilarga so‘zlovchining qanday qarashini:** Sababki, Odam bolasining Odam bolasiga dushmanlig‘i durust emasdur[4:4].

**O‘z fikri tarkibiy qismlarining ahamiyatlilik darajasi, ya’ni tartibi:**

Hayotning ulug‘ falsafasi, avvalo, Allohning shu ilohiy kitobida mujassam[5:637].

**Fikrning birovga nisbatlanishi, ya’ni birovga qarashliligi:** Aytishicha, Petrashvili u yigitga birikki qiliq qilgan[2:265].

*Kiritma gaplar fikr va uning tarkibiy qismlariga doir bayon etadigan qo'shimcha axboroti yoki izohini ifodalaydi:* Qamoqda yurib hamma narsani o'rgandim, degan bu go'dak (Zelixonning oldida Elchin bir go'dak edi) birinchi to'qnashuvdayoq nobud bo'lishi aniq edi[1:92]. Ilimiliq (Zohid birinchi toifani shunday ataydi) odamlar oftobda qolgan suvgaga o'xshaydi[4:112].

**NATIJALAR.** "Shaytanat" asarida kirish va kirimalar asarning badiiy qiymatini oshiradi. Kirishlar asarda muallifning turli hissiy va aqliy holatlarini ifodalashga imkon beradi, kirimalar esa o'quvchini asardagi asosiy fikrga chuqurroq bog'laydi va ularni kengroq tushunishga yo'naltiradi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, asardagi kirish va kirimalarning badiiy uslubni boyitishdagi o'rni katta. Muallif asarda afsuslanish, quvonch, inkor kabi hissiyotlarni kirish so'zlar orqali yoritadi. Kiritma gaplar esa o'ziga aloqador bo'lмаган fikrlardan maxsus ajratilib, asosiy fikrni qo'shimcha izohlar bilan boyitadi.

**XULOSA.** "Shaytanat" asaridagi kirish va kirimalar badiiy matnning ichki ma'nosini boyitishda va o'quvchiga chuqurroq estetik ta'sir ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu unsurlar asar ichida voqealarning teran tushunilishiga yo'naltiruvchi badiiy vositalar sifatida xizmat qiladi. Kirish qismida muallif o'z asarining asosiy mavzusi, unda tasvirlangan jamiyat va zamon haqida dastlabki tushunchalarni beradi, bu esa o'quvchini asar mohiyatiga tayyorlaydi. Kirimalar esa hikoya davomida o'quvchining e'tiborini muhim jihatlarga qaratib, voqealarning sabablarini va oqibatlarini teranroq tushunishga imkon beradi.

Kirish va kirimalar orqali Tohir Malik o'z asarida zamonaviy hayotning murakkab jihatlarini, insoniy munosabatlari, jinoyat va jazo,adolat va zulm mavzularini chuqurroq o'rganishga yo'naltiradi. Ular asarda voqealar rivojiga faqat yorituvchi bo'lmay, balki o'quvchiga falsafiy savollarni ham

taqdim etadi. Bu esa o'quvchini oddiy voqealar orqali hayotning murakkabligiga, insonning ruhiy va axloqiy tanlovlariiga o'ylantiradi. Kirish va kirimalarning bunday qo'llanilishi, badiiy asarni nafaqat estetik zavq bilan o'qishga, balki ma'no qirralarini chuqr mulohaza qilishga ham undaydi.

Ilmiy nuqtayi nazardan, bunday elementlar o'ziga xos badiiy texnikalar bo'lib, ular asarning tuzilishi va mazmuniy mustahkamligini ta'minlaydi. Kirish qismida berilgan umumiy ko'rsatmalar voqealar rivojini mantiqiy izchillik bilan qamrab oladi, kirimalar esa har bir epizodni yanada jonliroq va chuqurroq tasvirlashga yordam beradi. Shu tariqa, T.Malikning "Shaytanat" asari kirish va kirimalar yordamida voqealarning dinamikasini oshiradi va o'quvchini hayotiy muammolarni falsafiy jihatdan tahlil qilishga undaydi. Bu unsurlar asarning badiiy qiymatini oshirib, uni zamonaviy adabiyot namunasi sifatida mustahkamlaydi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Tohir Malik. Shaytanat. Toshkent.: Sharq NMAK, 2013. I, II, III, IV, V jildlar
2. Zamonaviy o'zbek tili: Sintaksis / Mualliflar jamoasi. – Toshkent.: Mumtoz so'z, 2011. – 302 b.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent.: Universitet, 2006. – 476 b.
4. Xudayberanova D. Lingvokulturologiyaning nazariy asoslari xususida mulohazalar. Miasto Przyszlosci. – Kielce, 2023. 660-663.
5. Xudayberanova D. Linguopoetic studies in the example of the epic "Ravshan". Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. 2023. 293-297.
6. Xudayberanova D. [The linguistic poetics in the epic of Koroglu](#). International multidisciplinary journal for research & development. 2023. 585-590.
7. Jalilov U. Matn lingvistikasi: Kirish va kirimalar tahlili. Filologiya va madaniyat. 2011. 4(2), 67-73.